



Foyda. Hisobot ma'lumotlariga ko'ra, 2024-yilning yanvar-iyun oylari uchun korxonalar va tashkilotlar tomonidan 2503,5 mlrd.so'm miqdorda yakuniy moliyaviy natija olindi. 2023-yilning shu davriga nisbatan solishtirganimizda, foyda hajmi 4061,5 mlrd.so'mga ko'paygan.

2024-yilning yanvar-may oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yirik tijorat tashkilotlarining yakuniy moliyaviy natijalari

	Foyda, zarar (-), mlrd. so'm	2023- yilning yanvar-mayga nisbatan, % da
Jami	2503,5	61,6
Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash	-97,6	
Ishlab chiqaradigan sanoat	1512,6	100,4
Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash	-6873,9	-
Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish	39,7	-
Qurilish	540,8	-
Savdo	1607,8	66
Tashish va saqlash	3070,1	140,7
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	174,4	
Axborot va aloqa	1232,7	78,2
Moliya va sug'urta faoliyati	723,1	299,5
Ko'chmas mulk bilan operatsiyalar	79,8	39,3
Professional, ilmiy va texnik faoliyat	-495,6	-
Boshqarish bo'yicha faoliyat va yordamchi xizmatlar ko'rsatish	333,8	129,6
Davlat boshqaruvi va mudofaa; majburiy ijtimoiy ta'minot	135,0	125,3
Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	-14,0	-
Ta'lim	616,0	191,5
San'at, ko'ngil ochish va dam olish	-100,2	-
Boshqa turdagi xizmatlar ko'rsatish	19,0	85,9

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha tahliliy ma'lumotlar shuni ko'rsatmoqdaki, yirik tashkilotlarda ko'rilgan foydaning asosiy qismini ishlab chiqaradigan sanoat yo'nalishidagi tashkilotlar tashkil etmoqda.



**Toshkent shahrida yirik tijorat tashkilotlarining
2024-yil yanvar-may oylarida hududlar kesimida
yakuniy moliyaviy natijalari**

	Foyda, zarar (-), mlrd. so‘m	2023- yilning yanvar-mayga nisbatan, % da
Toshkent sh.	2503,5	61,6
<i>tumanlar:</i>		
Bektemir	579,0	157,6
Mirzo Ulug‘bek	-3291,2	-
Mirobod	772,6	75,5
Olmazor	292,3	63,2
Sergeli	1052,8	142,4
Uchtepa	-28,8	-
Chilonzor	- 273,4	-
Shayxontohur	461,2	74,9
Yunusobod	-1020,6	-
Yakkasaroy	3491,7	118,2
Yashnobod	205,7	26,2
Yangihayot	262,1	129,3

Toshkent shahrining yirik tijorat tashkilotlari bo‘yicha 2503,5 mlrd.so‘m, tumanlar kesimida foyda (zarar)ning asosiy qismi Yakkasaroy tumaniga 3491,7 mlrd.so‘m (jami foydaning 139,5 %), Sergeli tumaniga 1052,8 mlrd.so‘m va Mirobod tumaniga 772,6 mlrd.so‘m to‘g‘ri keladi.

2024- yilning yanvar-may iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha
zarar ko'rgan yirik tijorat korxonasi va tashkilotlarning moliyaviy natijalari

	Korxonalar soni	Zarar summasi	
		mln. so'm	jamiga nisbatan, % da
Jami	465	1 0704809,8	100,0
Ishlab chiqaradigan sanoat	36	426 627,1	4,0
Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash	11	370 766,1	3,5
Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash	4	6 945 899,9	64,9
Suv bilan ta'minlash; kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilitatsiya qilish	2	311 03,1	0,3
Qurilish	25	192 002,1	1,8
Savdo	149	611 610,9	5,7
Tashish va saqlash	29	235 983	2,2
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	14	42 320	0,4
Axborot va aloqa	44	571 473,3	5,3
Moliyaviy va sug'urta faoliyati	5	13 684,3	0,1
Ko'chmas mulk bilan operatsiyalar	15	56 560,9	0,5
Professional, ilmiy va texnik faoliyat	48	879 859,5	8,2
Boshqarish bo'yicha faoliyat va yordamchi xizmatlar ko'rsatish	24	25 461,8	0,2
Davlat boshqaruvi va mudofaa, majburiy ijtimoiy ta'minot	8	7784,2	0,1
Ta'lim	17	61 811,6	0,6
Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	14	91 401,4	0,9
San'at, ko'ngil ochish va dam olish	17	125 691,8	1,2
Boshqa turdagi xizmatlar ko'rsatish	3	14 769	0,1



2024 - yil yanvar-may oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha zarar ko'rgan yirik tijorat korxonasi va tashkilotlarning moliyaviy natijalari
(jami nisbatan foiz hisobida)



Zararlarning asosiy qismi elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash 648,9 mlrd.so'm (jami zararining 64,9 %), professional, ilmiy va texnik faoliyat 82,2 mlrd.so'm (jami zararining 8,2%), Savdo 57,1 mlrd.so'm (jami zararining 5,7 %) Axborot va aloqa 53,4 mlrd. so'm (jami zararining 5,3 %), Ishlab chiqaradigan sanoat 39,9 mlrd.so'm (jami zararining 4,0 %) faoliyat turlarini tashkil etadi.



2024-yilning yanvar-may oylarida hududlar kesimida zarar ko'rgan yirik tijorat korxonalar va tashkilotlarning moliyaviy natijalari

	Korxonalar soni	Zarar ko'rgan korxonalarining ulushi jamiga nisbatan, % da	Zarar summasi, mln. so'm
Toshkent shahri	465	100,0	10 704 809,8
<i>tumanlar:</i>			
Bektemir	9	0,5	50 502,9
Mirzo Ulug'bek	68	39,0	4 178 189,3
Mirobod	54	5,6	595 936,6
Olmazor	30	0,7	79 334,9
Sergeli	29	1,1	120 805,3
Uchtepa	14	1,5	160 191,8
Chilonzor	54	8,5	904 681,3
Shayxontohur	50	9,8	1 052 142,8
Yunusobod	68	23,8	2 544 709,3
Yakkasaroy	46	3,5	374 337,5
Yashnobod	50	5,0	533 532,3
Yangihayot	9	1,0	110 445,7



Toshkent shahrida yirik tijorat korxonalarida 2024-yil 1-iyun holatiga iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha muddati o'tgan debitor qarzdorlikning tarkibi

	Jami, mln. so'm	shundan:			Muddati o'tgan qarzdorlikning ulushi, % da
		xaridor va buyurtmachilar	yetkazib beruvchilarga va pudratchilarga berilgan avanslar	ichki idoraviy	
Jami	11066706,2	10495534,2	295259,17	100	100,0
Axborot va aloqa	7582,5	7030,4	552,2		0,1
Ishlab chiqaradigan sanoat	131247,8	114912,2	8514,6		1,2
Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash	206300,4	205871,8	428,7		1,9
Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilitatsiya qilish	202080,4	202080,4			1,8
Qurilish	28130,1	12379,4	15750,8		0,3
Savdo	559747,9	102366,8	206991,4		5,1
Tashish va saqlash	9641951,5	9641866,2	37,1		87,1
Ko'chmas mulk bilan operatsiyalar	6237,4	6050,1	31	100	0,1
Professional, ilmiy va texnik faoliyat	160170,2	107414,5	52698,2		1,4
Boshqarish bo'yicha faoliyat va yordamchi xizmatlar ko'rsatish	3813,9	3813,6			0,9
Moliyaviy va sug'urta faoliyati	25437,6	8027,8			0,2
Boshqa turdagi xizmatlar ko'rsatish					

Iqtisodiyot tarmoqlari, tumanlarda va idoralarda muddati o'tgan qarzdorlikni tugatish bo'yicha yetarlicha tizimli ishlar tashkillashtirilmaganligi natijasida, muddati o'tgan debitor qarzdorlikning yuqori sur'atda o'sishi saqlanib qolmoqda.

2024-yil 1-iyun holatiga debitor qarzdorlikning umumiy hajmi 174496,1 mlrd.so'm, undan muddati o'tgan 11066,7 mlrd.so'm yoki jami debitor qarzdorlikning 6,3 % ni tashkil etdi.



**Toshkent shahrida yirik tijorat korxonalarida 2024 - yil 1 - iyun holatiga
iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha muddati o'tgan kreditor
qarzdorlikning tarkibi**

	Jami, mln. so'm	shundan:				Muddati o'tgan qarzdor- likning ulushi, % da
		yetkazib beruvchi- lar va pudrat chilarga	budjetga to'lov- lar	davlat maqsadli fond- lariga to'lovlar	ichki idoraviy	
Jami	7392358,7	5212887	708234,2	42857	32199,6	100,0
Ishlab chiqaradigan sanoat	30317,8	23219,3				0,4
Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash	5925321,5	4700966,1	704951,6	42441,9		80,2
Savdo	455397	1519,7			32199,6	6,2
Professional, ilmiy va texnik faoliyat	153360,6	146909,6	1,5			2,1
Qurilish	16619,5	16619,5				0,2
Elektr,gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash	722131,8	274649,3	-	-	-	9,8
Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	720,2	720,2				0,0
Tashish va saqlash						
Axborot va aloqa	229,6	229,6				0,0
Ko'chmas mulk bilan operatsiyalar	51722,9	48053,8	3254,1	415		0,7
Boshqarish bo'yicha faoliyat va yordamchi xizmatlar ko'rsatish	3050,9		27	0,1		0,5

2024-yil 1-iyun holatiga kreditor qarzdorlikning umumiy hajmi 201 500 368,7 mln.so'm, undan muddati o'tgan 7 392,4mlrd.so'm yoki jami kreditor qarzdorlikning 3,7 % ni tashkil etdi.



Toshkent shahrida yirik tijorat korxonalarida 2024 - yil 1 –iyun holatiga tumanlar bo‘yicha muddati o‘tgan debitor va kreditor qarzdorlikning tarkibi

	muddati o‘tgan debitor qarzdorlik bo‘yicha korxonalar soni	muddati o‘tgan debitor qarzdorlik mln. so‘m	muddati o‘tgan kreditor qarzdorlik bo‘yicha korxonalar soni	muddati o‘tgan kreditor qarzdorlik mln. so‘m
Toshkent shahri	95	11066706,2	34	7392358,7
tumanlar:				
Bektemir	5	26138,8	1	18311,7
Mirzo Ulug‘bek	9	223003,5	6	211174,1
Mirobod	12	314426,7	1	0,3
Olmazor	5	22791,9	0	
Sergeli	9	23275,6	2	33003
Uchtepa	4	1461,2	2	1078,6
Chilonzor	8	41760,1	3	230,2
Shayxontohur	11	620565,5	8	1177904,8
Yunusobod	8	30868,1	2	345,2
Yakkasaroy	13	122505,3	5	5934209,5
Yashnobod	11	9639909,4	4	16101,3
Yangihayot	-	-	-	-

Toshkent shahrining yirik tijorat tashkilotlari bo‘yicha 2024-yil 1-iyun holatiga muddati o‘tgan debitor qarzdorlikning tumanlar kesimida asosiy qismi Yashnobod tumaniga 9 639,9 mlrd.so‘m (jami muddati o‘tgan debitor qarzdorlikning 87,1 %), Shayxontohur tumaniga 620,6 mlrd. so‘m (jami muddati o‘tgan debitor qarzdorlikning 5,6 %), Mirobod tumaniga 314,4 mlrd. so‘m (jami muddati o‘tgan debitor qarzdorlikning 2,8 %) va Mirzo Ulug‘bek tumaniga 223,0 mlrd. so‘m (jami muddati o‘tgan debitor qarzdorlikning 2,0 %) to‘g‘ri keldi.



Shuningdek 2024-yil 1-iyun holatiga muddati o'tgan kreditor qarzdorlikning tumanlar kesimida tahlil qilganda, asosiy qismi Yakkasaroy tumaniga 5934,2 mlrd.so'm (jami muddati o'tgan kreditor qarzdorlikning 80,3 %), Shayxontohur tumaniga 1177,9 mlrd.so'm (jami muddati o'tgan kreditor qarzdorlikning 15,9 %) va Mirzo Ulug'bek tumaniga 211,2 mlrd.so'm (jami muddati o'tgan kreditor qarzdorlikning 2,9 %) to'g'ri keldi.

STATISTIK KO'RSATKICHLARGA IZOHLAR

Daromad (foyda) solig'i to'lagunga qadar foyda (zarar) – korxonalar va tashkilotlarning barcha xo'jalik operatsiyalarini buxgalteriya hisobida aks ettiradigan yakuniy moliyaviy natija. Mahsulot (tovar, ish va xizmat)larni sotishning yalpi foydasi (zarari), asosiy faoliyatning boshqa daromadlari, moliyaviy faoliyatning daromadlari va favqulodda foyda yig'indisidan davr xarajatlari, moliyaviy faoliyat bo'yicha xarajatlar va favqulodda xarajatlar chegirib tashlanadigan foydaning umumiy foydasini (zararini) ifodalaydi.

Debitorlik qarzlari – xaridorlar va buyurtmachilar, sho'ba va qaram xo'jalik jamiyatlarining qarzlari, xodimlarga, mol yetkazib beruvchilar va pudratchilarga berilgan bo'naklar, budjet va davlat maqsadli jamg'armalariga soliqlar, yig'imlar va sug'urta bo'yicha bo'nak to'lovlari, muassislarning ustav fondidagi ulushlari bo'yicha qarzi, xodimlarning boshqa operatsiyalar bo'yicha qarzlari va boshqa debitorlik qarzlari o'z ichiga oladi.

Kreditorlik qarzlari – yetkazib beruvchilar va pudratchilar, sho'ba va qaram xo'jalik jamiyatlarining qarzi, soliq va boshqa majburiy to'lovlar bo'yicha muddati kechiktirilgan majburiyatlar, olingan avanslar, budjetga to'lovlar bo'yicha qarz, sug'urta bo'yicha qarz, davlat maqsadli jamg'armalariga to'lovlar bo'yicha qarz, ta'sischilarga qarzlari, mehnatga haq to'lash bo'yicha qarzlari va boshqa kreditorlik qarzlari o'z ichiga oladi.

Mahsulot (tovar, ish va xizmatlar) – tayyor mahsulot, tovar, bajarilgan ish va ko'rsatilgan xizmatlarni sotishdan olingan daromadlar, shuningdek, sotilgan tovarlarning qaytishi, sotish va baholardan chegirmalar qo'shimcha qiymat solig'i hamda aksiz solig'ini qo'shgan holda.

Muddati o'tgan qarzlari – qonun hujjatlarida belgilangan muddatlarda so'ndirilmagan qarzlarning umumiy summasi.